



SCIENCE BOX

RASMIY VA NORASMIY NUTQIY ETIKETLARNING O'RGANILISHI

Saidaxon Mustafoyeva

Farg'onan davlat universiteti, Xorijiy til va adabiyoti (Nemis tili) I bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada rasmiy hamda norasmiy nutqiy etiket va ularning jamiyatda tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi. O'zbek va nemis nutqiy etiket qoidalarining o'rganilishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: jamiyat, etiket, muloqot, etika, xulq-atvor.

Inson malum bir jamiyatda yashar ekan, hayotini muloqotsiz tasavvur qilish imkonsiz. Muloqot insonlar bilan xabar qabul qilish, almashish, o'z fikrini boshqalarga yetkazish uchun xizmat qiluvchi vositadir. Inson muloqot qilar ekan, istar-istamas nutqiy etiket qoidalariga duch keladi. So'zlovchining nutqi va o'zini tutishi bilan jamiyatning qaysi qatlamiga mansub ekanligini anglab olish qiyin emas. „Nutq etikasi“ haqida so'z yuritishdan avval, „Etika“ atamasi qanday ma'noni anglatishini bilib olishimiz lozimdir. „Etiket“ tushunchasi fransuz tilidan olingan bo'lib, „etiquette“ so'zidan kelib chiqqan va „xulq atvor shakli“, „xushmuomalalik va hurmat ko'rsatish qoidalari“ kabi ma'nolarni anglatadi. Umumiylig qilib aytganda, etiket bu – jamiyatdagi turli qatlam vakillarining foydalananadigan va ular o'rtasidagi munosabatni tartibga solib turadigan odob-axloq qoidalaridir. Etika mazmun-mohiyatiga qarab bir qancha qismlarga bo'linadi. Jumladan, nutq etikasi, ovqatlanish, kiyinish etikasi va boshqalar. Aytishlaricha, qadimda buyuk Fransiya qiroli Lyudovik XIV saroyida taklif qilingan mehmonlarga stol atrofida va boshqa mehmonlar bilan o'zini qanday tutishi kerakligi tasvirlangan kartoshkalar tarqatilgan va u kartoshkalarga „etiketlar“ deb nom qo'yilgan ekan. Nutqiy etiket ham etikaning bir qismi hisoblanib, jamiyatda, insonlar hayotida muhim ahamiyatga ega. Nutqiy etiketni o'rganish har doim tilshunoslarning diqqat e'tiborini tortib kelgan. „Nutqiy etiketning o'rganilishi XX asrning ikkinchi yarmida boshlandi. V.S.Kostamorovning 1957-yilda nashr etilgan „Русский речевой этикет“ nomli maqolasi bu yo'nalishdagi izlanishlarning muqaddimasi bo'ldi. Xuddi shu davrdan boshlab tilshunoslik bilimlarning maxsus yo'nalishi – nutqiy etiket paydo bo'ldi“ [1,502]. Jahon tilshunosligida nutqiy etiket bo'yicha ko'plab tilshunos olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Jumladan, A.Knigge, R.Sedlashek, N.M.Firsova R.Iyuelbgojfts, V.Xartung, Y.D.Desheriev, X.Shonfeld, B.Yurgen, S.Augenshtein, A.A.Akishina, V.M.Alpatov, N.D.Arutyunova, B.N.Golovin, V.E.Goldin, V.G.Kostomarov, N.F.Mixeyeva, T.N.Naumova, F.Pap, L.P.Stupin, K.S.Ignatev, N.I.Formanovskaya, B.Kim, V.Bredov, I.Renate, Sh.Jems, K.Rayner, X.Lyuger, J.Mala, Sh.Friedmann, J.Schild kabi olimlar shu mavzuda jahon tilshunosligida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ular nemis, yapon, ingлиз, rus, ispan, fransuz tillaridagi nutqiy etiket birliklari yuzasidan tadqiq qilganlar. „O'zbek tilida nutq madaniyati, nutqiy odatlar masalalarining nazariy tadqiq etilishi va tilshunoslikda alohida tarmoq sifatida shakllanishida S.Ibrohimov, R.Qo'ng'urov, X.Doniyorovlar tamal toshini qo'ygan bo'lsalar, E.Begmatov, A.Rustamov, N.Mahmudov kabi yirik olimlar, asosan, leksik birliklar, so'z kesimida ish olib borishgan. B.O'rınboyev sintaksis sohasida, E.Begmatov, Y.Tojiyev, S.Mo'minov,





SCIENCE BOX

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SOCIAL SCIENCES

www.sciencebox.uz

Volume: 03 Issue: 03 / March - 2023

ISSN: 2181-2594

S.Karimov, Sh.Iskandarova, Z.Akbarova kabi olimlarning tadqiqotlarida esa muloqot jarayonining nutqiy odat shakllari jihatdan tahlili masalasiga oydinlik kiritildi.” [2,18]

N.Uloqov “Tilshunoslik nazariyasi” kitobida sistem tilshunoslikka XX asrda Ferdinand de Sossyur asos solganini, bundan so‘ng o‘nlab yangi lingvistik oqim va maktablar vujudga kelganini ta’kidlab o‘tadi. “Tilshunoslik fanining chegarasi va predmetini aniqroq ta’riflash maqsadida Ferdinand de Sossyur Vilgelm fon Gumboldt kabi antonimiya (qarama-qarshi qo‘yish) metodidan foydalanib, til va nutqni ajratib, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo‘ydi. Uning fikricha, til nutq faoliyatining faqat bir tomonini tashkil etadi. Til nutqning asosiy farqi – til ijtimoiy, nutq esa individual hodisadir.” [6,9]

O‘zbek tilshunos olimasi Zuhro Akbarova tilni sotsiolingvistik jihatdan ya’ni tilning ijtimoiy tabiatini, ijtimoy vazifalarini o‘rgangan va shu bilan birga nutqning asosiy omillaridan biri bo‘lgan – murojaat shakllari ustida tadqiqot ishlarini olib borib, tafakkur va til munosabatida murojaatning o‘rni, murojaat va undalmaning umumiyligi va o‘ziga xos xususiyatlari, murojaat ifodalashda ishora-harakat va rangning o‘rni, murojaatning psixolingvistik vazifasi to‘g‘risida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z ilmiy ishida ifodalab bergen. Uning fikricha, “tafakkur barcha tip va ko‘rinishlari bilan nutq shakllanishiga ta’sir etadi. Shuning uchun fikrning real vogelikka aylanishi tilga, tilning reallashuvi – nutq tarzida konkretlik kasb etishi tafakkur omiliga bog‘liqdir.” [2,7]

Sh.Gulyamova o‘zining «O‘zbek tili evfemizmlarining gender xususiyatlari» nomli dissertatsiyasida o‘zbek erkak va ayollarining nutqida evfemizmlarning o‘rni yuzasidan tadqiqot olib borgan, evfemizmlarning vujudga kelishiga sabab bo‘luvchi omillar haqida malumotlar keltirib o‘tgan va gender evfemizmlarini guruhlarga ajratgan. M.Hakimov “O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari” nomli monografiyasida inson nutqiy faoliyati bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish muxim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etishini aytib o‘tadi. “Zamonaviy tilshunoslik ekstralolingvistika, instralingvistika va komporativistika tarmoqlaridan iborat bo‘lib, ularning barchasida inson nutqiy faoliyati o‘rganiladi. Nutqda insonning fikri bilan birga uning ruhiy olami ham o‘z ifodasini topadi. Nutqdagi oshkora va yashirin ma’nolarni tadqiq-u tahlil qilish, insonning o‘zligini nutqi orqali namoyon etishi kabi masalalarni o‘rganish bugungi o‘zbekona tafakkur tarzi, milliy mafkura va milliy g‘oya tushunchalarini ochishda muhim o‘rin tutadi.” [4,5] Har bir xalq va millatda bo‘lgani kabi nemis tilshunos olimlari ham nemis nutqiy etiket qoidalari ustida juda azal-azaldan bosh qotirib kelganlar. Nemis davlati Yevropa mamlakatlari ichida ham eng rivojlangan davlatlar sirasiga kirgani tufayli nutqiy etiket haqidagi ilmiy izlanishlar o‘zbek xalqidan biroz avvalroq boshlangan, deya olamiz. Mashhur nemis yozuvchisi, madaniyatshunos olim Adolf Frayer fon Knigge ham bu sohada nemis xalqi uchun zaruriy bo‘lgan yuksak asarini yozgan. 1788-yilda ilk bor nashr qilingan “Über den Umgang mit Menschen” (Kishilar bilan muloqot qilish to‘g‘risida) kitobi A.F.Kniggega hali hayotlik paytidayoq shuhrat keltirgan. Ushbu kitob o‘zida muloqot qilish jarayonidagi muhim bo‘lgan jihatlarni, ya’ni odob-axloq qoidalarini jamlagan. 3 qism, 26 bobdan tashkil topgan bu kitob keyinchalik muallif ismi bilan “Knigge”, “Knigge qoidalari” deb nomlana boshlandi. Kitobda „Allgemeine Bemerkungen und Vortschriften“ (Umumiyligi mulohazalar va qoidalar), „Über den Umgang mit sich selbst“ (O‘zi bilan muomala qilish to‘g‘risida), „den Umgang mit Geistlichen“, „Eltern, Kindern und Blutsverwandten“, „Eheleuten“, „Verliebten“, „Hauswirten, Nachbarn“ (Ruhoniylar, ota-onalari, bolalar, qarindoshlar, er-xotin, sevishganlar, xo‘jayinlar va qo‘snilalar bilan muloqot) deb nomlangan boblar mavjud. Kitob hayvonlar bilan qanday munosabatda bo‘lish va yozuvchi va kitobxon o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi eslatmalar bilan yakun topadi. Yoshlar tilini o‘rganish nemis tilshunos olimlarining tadqiqot obyekti bo‘lgan. Ayniqsa, Susanne Augenshtein bu borada o‘zining „Funktionen von Jugendspache“ (Yoshlar tilining vazifalari), „Studien zu





SCIENCE BOX

verschiedenen Gesprächstypen des Dialogs Jugendlicher mit Erwachsenen“ (Yoshlarning o’smirlar bilan har xil suhbat turlarini o’rganish) kabi tadqiqotlari bu sohaga salmoqli hissa qo’shgan. Bundan tashqari, Sedlaczek R. „Das Lexikon der Jugendsprache“ (Yoshlar tili leksikoni), Bredow W. „Medien und Gesellschaft“ (Axborot vositalari va jamiyat), Lüger H. „Pressesprache“ (Matbuot tili) kabi olimlar o’zlarining yuqorida ko’rsatilgan mavzularda tadqiqot olib borganlar.

Shu kunga qadar nemis hamda o’zbek nutqiy etiket qoidalari yuzasidan tadqiqot ishlari deyarli olib borilmagan edi, ammo Q.Kaxarov o’zining „O’zbek va nemis nutqiy etiketlarining qiyosiy tadqiqi“ nomli dissertatsiyasida bu muammoga yechim topdi. Ushbu ilmiy ishda o’zbek va nemis tillarida shakllangan nutqiy etiketlardagi o’xshashlik va farqlilik, madaniyat va nutqiy jarayonlardagi ikki xalq o’rtasidagi o’ziga xos bo’lgan jihatlar olib berilgan, o’zbek va nemis xalqi murojaat shakllarining qo’llanilishi, kommunikatsiya jarayonidagi yosh hamda jins bilan aloqador noverbal vositalar ikki til doirasida tadqiq qilingan. „O’zbeklar muloqot jarayonida qo’llaniluvchi nutqiy etiketlar, asosan, sharq madaniyati ta’sirida, nemis muloqot jarayonida qo’llaniluvchi nutqiy odatlar esa g’arb madaniyati ta’sirida shakllangan. Har ikki xalq nutqiy etiketlarini o’zaro qiyoslab o’rganish shu xalqlar tilshunosligi uchun ham ma’lum samara beradi.“ [2,141] Umumiyligini qilib aytganda, hozirgi kunda tilshunoslikka bo’lgan e’tibor yildan-yilga kuchayib bormoqda. Yurtboshimizning ham o’zbek tiliga rivojlantirish yo’lida olib borayotgan ishlari, muhim qarorlari o’zbek tili ravnaqi uchun katta ahamiyatga egadir. 2021-yil 21-oktabr kuni Xalqaro kongress markazida o’zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o’ttiz yilligiga bag’ishlangan tantanali marosim bo’lib o’tdi va ushu marosimda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so’zladi. „Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo’lgan o’zbek tili xalqimiz uchun milliy o’zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, beba ho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o’zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo’lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o’lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo’shiqlariga qulqo tutsin,“ – deydi muhtaram Prezidentimiz.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, nutqiy etiketlarning hayotimizda tutgan o’rni beqiyos, shuning uchun ham nutqiy etiketga doir ilmiy tadqiqotlar tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ta’kidlab o’tishimiz joizki, ikki til doirasida qiyosiy jihatdan olib borilgan ilmiy ishlarning afzallik tomonlari ko’p. Ikki yoki undan ortiq tillar nutqiy etiket qoidalari qanchalik ko’p tadqiq qilinishi, shunchalik ilm-fan uchun yutuq sanaladi. Bu bilan davlatlar va millatlar o’rtasida do’stlik va hamkorlik mustahkamlanadi, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham, dunyo tilshunosligi fani uchun ham juda muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Atoyeva Shamsiya Rahmon qizi, Murojaat –nutqiy etiketning muhimkomponenti. Result of National Scientific Research 2022 SJIF-4.431, 501-502 bet
2. Кахаров, К. Ш. Узбек ва немис нуткий этикетларининг киёсий тадқики. Филология фанлари буйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси, Андижон-2020.
3. Зухро Акбарова .Узбек тилида мурожаат шакллари. –Ташкент : Akademnashr,2015. –Б.3
4. Мухаммад Хакимов, Узбек прагмалингвистики асослари. Toshkent “Akademnashr” –2013
5. Гулямова Шахноза Каҳрамоновна. Узбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари.Филология фанлари буйича фалсафа доктори(PhD) диссертацияси афтотеферати, Бухоро –2020





SCIENCE BOX

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SOCIAL SCIENCES

www.sciencebox.uz

Volume: 03 Issue: 03 / March - 2023

ISSN: 2181-2594

6. Nosirjon Uloqov, Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent – 2016
7. Kaharov, K. S. (2020). Formal and informal ways of conversation in the german and uzbek languages. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(9), 286-289.
8. OTA, O. Z. V. N. O., & XUSUSIYATLARI, N. O. Z. X. Q. Sh. Kaxarov-Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo ‘limi boshlig ‘i. FARG ‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 320.
9. Kaharova, M. (2021). MICRO FIELD OF LEXEMES WHICH DENOTE UZBEK PEOPLES’HOLIDAYS AND WORK CEREMONIES. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука,(9), 646-648.
10. Kakharova, S. (2022). Speech as a Tool of Pedagogical Activity of the Teachers. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(11), 61-64.
11. TASNIFI, A. Sh. N. Kaxarova–Farg ‘ona davlat universiteti ingliz tili o ‘qituvchisi SHAXSLARARO MULOQOT XULQINING MUMTOZ ADABIYOT VAKILLARI. FARG ‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 416.

